

**JISMONIY MADANIYAT VA SPORT FANI O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH.**

10.53885/edinres.2022.10.26.129

Musayev Otobek Qudratovich

Navoiy davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat kafedrasи

PhD, dotsent v. b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy madaniyat va sport fani o'qituvchilarda kasbiy kommunikativ kompetentlilik kompetensiyaviy yondashuv haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, sport, o'qituvchi, kasbiy kommunikativ, kompetentlilik , kompetensiya, shakllantirish..

Аннотация: В статье рассматривается компетентностный подход к формированию профессиональной коммуникативной компетентности у учителей физической культуры и спорта.

Ключевые слова: физическая культура, спорт, педагог, профессиональная коммуникативность, компетенция, компетентность, формирование.

Annotation: This article discusses the competency-based approach of professional communicative competence in physical education and sports teachers.

Keywords: physical culture, sports, teacher, professional communicative, competence, competence, formation.

Jismoniy madaniyat va sport fani o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlilik sifatini, ularda erkin harakat, faol, mustaqil fikrlay olish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni modellashtira olish, shuningdek ta'lim-tarbiyaning yangi g'oya va texnologiyalarini mustaqil yaratish hamda ularni tatbiq eta olish ko'nikmalarini shakllantirish orqali oshirish muammosi bugungi kunda mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlarda, ayniqsa, dolzarb hisoblanadi. Shu o'rinda Prezidentimiz SH.Mirziyoevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy saloxiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimining bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [3], degan fikrlari bevosita mos keladi.

Yaqin va O'rta Sharqning buyuk mutafakkirlari (Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Yusuf al-Kindiy, Nosir Xusrav, Abu Nasr Forobi, Umar Hayyom, Muhammad ibn Muso Xorazmiy va h.k.) ko'plab ma'rifatparvar olimlar o'sib kelayotgan avlodga ta'lim-tarbiya berishda jismoniy madaniyat va sport fani o'qituvchining roli, ayniqsa tarbiyachining tarbiyalanuvchi bilan muloqotining ahamiyati muhimligini ta'kidlaganlar.

Demak, buyuk allomamiz nafaqat insonning chiroyli xulqiga, ma'naviy-axloqiy munosabatlariga shuningdek, uning faoliyat namunalariga ham katta e'tibor qaratgan.

Barkamol insonni shakllantirish g'oyasining rivojiga buyuk vatandoshlarimiz, qomusiy olimlar – Abu Ali ibn Sino va Hazrat Alisher Navoiy katta hissa qo'shgan. Ularning pedagogik qarashlarini integral pedagogika konsepsiysi nuqtai nazaridan o'rganish orqali ishonch hosil qilish mumkinki, ular ma'naviy-axloqiy, aqliy, estetik va jismoniy ta'limning o'zaro uyg'unligiga asoslanib komil insonni shakllantirishning etakchi yo'nalishini kashf etishga harakat qilganlar. Axloqiy tarbiya mazmunini niyatning pokligi, fidoyilik, himmatlilik, to'g'rilik, beg'arazlik, vazminlik kabi xislatlar bilan boyitishgan. Ayni paytda ular bugungi kun o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan ijodkorlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, omilkorlik masalalariga ham alohida e'tibor qaratishgan [3, 25-b]

Jismoniy madaniyat va sport fani o'qituvchining etuk mutaxassis sifatidagi kommunikativ kompetentliligini rivojlantirish o'sib kelayotgan yoshlarni mehnat va vatan mudofasi faoliyatlarida o'z o'mmini topishlariga, sifatli ta'lim olishlariga, shaxslararo ijtimoiy-madaniy muloqotlarini shakllantirishga yordam berishi kerak, biroq bunda eng muhimi – shaxsni talabga to'la javob beradigan darajada rivojlantirish va uning o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratish dolzarb muammodir.

O'qituvchi faoliyatida o'quvchilar va ularning hamkasblari bilan muloqot qurish qobiliyati alohida o'rin tutadi. Bu holda u o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ilmiy-pedagogik muloqot vositasi, kasbiy mahoratni oshirish, o'quvchi auditoriyasida qulay psixologik iqlim yaratish sharti vazifasini bajaradi. Buning uchun o'qituvchi maxsus kommunikativ malakalarga ega bo'lishi kerak: o'quvchi shaxsini bilish; o'quv jarayonida talabalar faoliyatini hamkorlik, ijodiy izlanish shaklida tashkil etish; muloqot vaziyatini idrok etish va to'g'ri baholash; hamdardlik, rahmdillik, talaba shaxsini tushunish; o'zaro ta'sirning gumanistik usullariga asoslangan talab yuqori bo'lgan talaba shaxsiga hurmat uyg'unligi va h.k [1].

Aynan shuning uchun pedagoglar tayyorlash ta'lif jarayonining asosiy vazifasi o'qituvchini kasbiy-pedagogik tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lgan kommunikativ kompetentlilikni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Kommunikatsiya – bu birinchi navbatda, faoliyat usuli bo'lib, u insonlarning o'zaro muomalaga moslashishini namoyon qiladi [4, 342- b]. Demak, kommunikatsiya o'ziga xos o'zaro fikr almashish jarayoni sifatida qabul qilinishi mumkin, buning natijasida o'zaro yordam ko'rsatish va murakkablikning turli darajalaridagi harakatlar muvofiqligi ta'minlanadi. SHuningdek, kommunikatsiyani muloqotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilash mumkin.

Ma'lumki, nutq kommunikatsiyaning eng universal vositasi hisoblanadi, chunki nutq orqali ma'lumot uzatilganda, uning ma'nosi kamroq yo'qotiladi. Aynan nutq yordamida ma'lumotni kodlashtirish va mos ravishda dekodlash mumkin: kommunikator nutqiy xabar jarayonida ushbu ma'lumot kodini ochadi. Bunda bildirilgan fikr tinglovchilar tomonidan aniq tushunilganligi kommunikator uchun faqat "kommunikativ rollar" almashishi sodir bo'layotganda aniq bo'lishi mumkin.

Nutq bir vaqtning o'zida qandaydir ma'lumotning manbai vazifasini bajarishi, shu bilan bir qatorda, o'z suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatish usuli sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Biroq o'zaro ta'sir ko'rsatish jarayonini to'liq tavsiflash uchun faqat kommunikativ akt strukturasini bilish kamlik qiladi. Muomalada bo'lgan har ikki tomonning motivlari, ularning maqsad va vazifalarini ham sinchiklab tahlil qilish zarur. Buni amalgalashish uchun esa kommunikativ muloqotga kiritilgan nutqdan tashqari bo'lgan belgilar sistemasiga (masalan, noverbal) murojaat qilish kerak.

Shunday qilib: "*kompetensiya*" – o'z ichiga shaxsga oid o'zaro bog'liq sifatlarning barchasini, ya'ni kompetensiyalar va faoliyat usullarini qamrab oladi, ularning predmet va jarayonlarning ma'lum kategoriyalariga aloqasi, insonning ularga nisbatan sifatlari va sermahsul faoliyatini uchun alohida ehtiyoj bor;

- "*kompetentlilik*" shaxs tomonidan o'ziga xos kompetensiya egalik qilish faoliyatiga oid ma'noli muloqotni anglatadi.

Shu bilan birga ilmiy-metodik adabiyotlarda kompetensiyaning turlicha integratsion tavsiflari beriladi. Bular:

- insonning mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodirligi, hamkorlikda biror qarorni qabul qila olish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy kompetensiyalar;

- jamiyat hayotini tartibga soluvchi va murosasizlik his-tuyg'ularini tarqalishiga to'sqinlik qilishga undovchi, shuningdek, insonning boshqa madaniyat, til va din vakillari bo'lgan insonlar bilan hamkorlikda yashashga tayyorligini o'ziga xos tarzda anglashiga yordam beruvchi kompetensiyalar;

- ayniqsa zamonaviy ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda muhim bo'lgan, insonning yozma va og'zaki muloqot qilish malakasini egallaganligini belgilovchi kompetensiyalar;

- yangi texnologiyalarni egallashni ustuvor talab deb belgilayotgan informatsion jamiyatning vujudga kelishi bilan bog'liq kompetensiyalar;

- insonning butun umri davomida nafaqat tanlagan kasbi, shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy hayot bilan bog'liq bilimlarni uzlusiz o'zlashtirib borishini ta'minlovchi kompetensiyalar.

J.Raven tadqiqotlarida kompetensiya "aksariyati mustaqil bo'lgan, ko'plab komponentlardan tashkil topgan, ... ba'zi komponentlar ko'proq kognitiv sohaga, boshqalari esa – hissiy xususiyatga oid, ... ushbu komponentlar samarali xulq, fe'l-atvorning tarkibiy qismi sifatida bir-birlarini almashtirishi mumkin"ligi aytilgan [2,115- b.].

Ta'kidlash joizki, kompetentlilik kishilar o'rtasidagi muloqotning barcha turlarida muloqotga kirishayotgan shaxsda yutuqlar uchta asosiy jihatlarda ko'rindi. Bular: - kommunikativ; - interfaol; - perseptiv.

Shuningdek, har qanday soha mutaxassis faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri bo'lgan jismoniy, ma'naviy-axloqiy, kasbiy kompetensiya tamoyiliga ham rioya qilishi kerak. Jismoniy madaniyat va sport fani o'qituvchining kasbiy kompetentliligi bir qator o'ziga xos tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular orasida samarali va foydali faoliyatni ta'minlashda kommunikativ kompetentlilik alohida o'rinni tutadi. SHunday qilib, ma'lum sohada kompetentli bo'lgan mutaxassis, sohaga oid masalalarda o'z harakatlarini samarali qo'llash bilan asosli mulohaza yuritishi uchun mos ravishdagi kompetensiyalarni ham egallagan bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda professional kompetentlilik deganda, individual-psixologik struktura ham tushuniladi, u bilim, kasbiy tajriba va pedagogning psixologik tayyorligini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, jismoniy madaniyat va sport fani o'qituvchisining muloqotdagi kompetentlilik, insondan turli uzoqlikdagi psixologik masofada o'ziga kerakli bo'lgan aloqani yaratishga tayyorlik va mahoratni talab qilishi mumkin.

Shunday qilib, jismoniy madaniyat va sport fani hqituvchisining “kommunikativ kompetentlilik” – insonning bilimlari va hissiy tajribasiga asoslangan bo‘lib, uning turli vaziyatlardagi muloqot yo‘nalishini aniqlay olishi hisoblanadi; bu insondagi uni o‘rab turganlar bilan birqalikda samarali harakat qilishning o‘ziga xos layoqati bo‘lib, aynan o‘zini va boshqalarini, shaxslararo muloqotlarning sifati hamda yashash muhitining ijtimoiy shart-sharoitlarida, psixologik holatlarning doimiy o‘zgarib turishini anglash orqali erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1.Blyagoz N.SH. Professionalnaya kompetentnost prepodavatelya vuza: osnovnye komponenty//Nauchno-informatsionnyy журнал NII kompleksnykh problem AGU. Setevoe elektronnoe nauchnoe izdanie “Nauka: kompleksnye problemy” – Maykop, 2014. –№ 4 (noyabr).
2. 2.Djon Raven Kompetentnost v sovremenном обществе. – 2002. – 400 s.
3. 3.Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiysi. – T.: –O‘qituvchi. 1996. – 192 b.
4. 4.Rozanov V. V. Sumerki prosvezcheniya. - M.: Pedagogika, 1990.- 624 s.
5. Musaev O. Oliy o‘quv yurti o‘qituvchisining pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari. Monografiya. –Toshkent: “Tamaddun”, 2016.
6. ББ Маъмуро. Аксиологический подход в подготовке будущих педагогов к проектированию учебного процесса.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=SqSdKDAAAAJ&citation_for_view=SqSdKDAAAAJ:W7OEmFMy1HYC
7. ББ Мамуров. МЫСЛИТЕЛИ ВОСТОКА О ГАРМОНИЧНО РАЗВИТОЙ ЛИЧНОСТИ.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=SqSdKDAAAAJ&citation_for_view=SqSdKDAAAAJ:Y0pCki6q_DkC
8. А Mamanazarov, В Mamurov, В Madrimov, М Mamanazarov, G Ulmasova. Гуманитарные Основания Личностного Развития Студентов В Образовательном Процессе По Физической Культуре.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=SqSdKDAAAAJ&citation_for_view=SqSdKDAAAAJ:u-x6o8ySG0sC
9. ББ Маъмуро. Основные требования к качеству высшего педагогического образования. <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-trebovaniya-k-kachestvu-vysshego-pedagogicheskogo-obrazovaniya>
10. ББ Маъмуро. Нравственно-эстетическое воспитание учащихся средствами литературных произведений. http://www.irbis-nbuv.gov.ua/cgi-bin/irbis_nbuv/cgiirbis_64.exe?I21DBN=LINK&P21DBN=UJRN&Z21ID=&S21REF=10&S21CNR=20&S21STN=1&S21FMT=ASP meta&C21COM=S&2 S21P03=FILA=&2 S21STR=Otros 2018 4 9
11. ББ Маъмуро. Нравственно-эстетическое воспитание учащихся средствами литературных произведений. http://www.irbis-nbuv.gov.ua/cgi-bin/irbis_nbuv/cgiirbis_64.exe?I21DBN=LINK&P21DBN=UJRN&Z21ID=&S21REF=10&S21CNR=20&S21STN=1&S21FMT=ASP meta&C21COM=S&2 S21P03=FILA=&2 S21STR=Otros 2018 4 9